TOSHKENT VILOYATI YANGIYO‘L SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 13-avgust | 217-10-196-Q/24 | Yangiyo‘l shahar hokimligi

Yangiyo‘l shahar M-34 “Toshkent Dushanbe” avtomobil yo‘lining 28-km.dagi “Beruniy va Toshkent shox ko‘chalarini bog‘lovchi, “Toshkent-Samarqand” tezyurar temir yo‘l ustidan o‘tuvchi yo‘l o‘tkazgichda (ko‘prik) yuk avtomashinalari o‘tishini ta’qiqlash to‘g‘risida

Yangiyo‘l shahar M-34 “Toshkent Dushanbe” avtomobil yo‘lining 28-km.dagi “Beruniy va Toshkent shox ko‘chalarini bog‘lovchi, “Toshkent-Samarqand” tezyurar temir yo‘l ustidan o‘tuvchi yo‘l o‘tkazgich (ko‘prik) o‘rganildi. O‘rganish natijalariga ko‘ra Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining 2024-yil 18-iyul kunidagi 3/12-3393-sonli hamda Yangiyo‘l shahar FVB ning 2024-yil 1-avgust kunidagi 687-sonli xatlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining 2024-yil 18-iyul kunidagi 3/12-3393-sonli hamda Yangiyo‘l shahar FVB ning 2024-yil 1-avgust kunidagi 687-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangiyo‘l shahar IIB YHXB boshlig‘i T.Zokirov, M-34 “Toshkent Dushanbe” avtomobil yo‘lining 28-km.dagi “Beruniy va Toshkent shox ko‘chalarini bog‘lovchi, “Toshkent-Samarqand” tezyurar temir yo‘l ustidan o‘tuvchi yo‘l o‘tkazgich (ko‘prik) yuk avtomashinalari o‘tishini taqiqlash to‘g‘risida yo‘l belgisini o‘rnatilishini ta’minlasin.

3. Yangiyo‘l shahar IIB YHXB boshlig‘i T.Zokirov M-34 “Toshkent Dushanbe” avtomobil yo‘lining 28-km.dagi “Beruniy va Toshkent shox ko‘chalarini bog‘lovchi, “Toshkent-Samarqand” tezyurar temir yo‘l ustidan

o‘tuvchi yo‘l o‘tkazgich (ko‘prik) da harakatlanayotgan avtomobillarni tartibga keltirish solish va harakat havfsizligini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

4. Yangiyo‘l shahar FVB boshlig‘i Q.Xudeybergenov Yangiyo‘l shahar IIB YHXB boshlig‘i T.Zokirov bilan birgalikda yuk transport vositalarini cheklash maqsadida osma temir to‘siq o‘rnatishi ishlarini amalga oshirsin.

4. Mazkur qaror ijrosini bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosarlari A.Usmanov va shahar IIB boshlig‘i E.Sultonovlar zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **D.Sultanov**